

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARDA NEOLOGIZMLARNING
KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

Pardayeva Nasiba Boyqobulovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti

*Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'i ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
yo'nalishi bo'yicha mustaqil izlanuvchi PhD.*

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi neologizmlarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini o'r ganadi. Neologizmlar, yangi so'zlar yoki iboralar sifatida tilga kirib kelib, jamiyatdagi texnologik, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni aks ettiradi. Maqolada ingliz va o'zbek tillarida paydo bo'ladigan neologizmlarning semantik va pragmatik jihatlari tahlil qilinadi. Neologizmlar tilga qanday kirib keladi, ularning kommunikativ jarayonda qanday ishlatalishi va qanday ma'nolarni ifodalashdagi o'r nini o'rganish maqsad qilingan. Maqolada, shuningdek, ingliz va o'zbek tillaridagi neologizmlarning madaniy va ijtimoiy kontekstlarga qanday bog'liqligi, tilshunoslikda qanday ahamiyat kasb etishi va til rivojlanishidagi roli ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Neologizm, kommunikativ-pragmatik xususiyatlar, ingliz tili, o'zbek tili, semantika, pragmatika, yangi so'zlar, madaniy o'zgarishlar, til taraqqiyoti.

Til taraqqiyoti davomida yangi so'zlar va iboralar paydo bo'lishi tabiiy jarayon bo'lib, bu jarayonni neologizm deb atashadi. Neologizmlar, o'zida yangi tushunchalarni yoki kontseptlarni ifodalovchi so'zlar sifatida til tizimiga kirib keladi. Har bir til, o'ziga xos tarixiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liq holda yangi so'zlarni qabul qilib, ularni kommunikativ jarayonga kiritadi. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi neologizmlarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi, ularning maqsadli auditoriyaga qanday ta'sir ko'rsatishini, axborot almashinuvida qanday rol o'ynashini va madaniy o'zgarishlarga qanday javob berishini aniqlashga yordam beradi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Hozirgi globallashuv davrida ingliz tili dunyo miqyosida xalqaro til sifatida tan olinib, texnologiya, fan, sanoat va ommaviy madaniyatning turli sohalarida keng qo'llaniladi. Shu sababli, bu tilda yuzaga kelayotgan yangi so'zlar — neologizmlar tezkorlik bilan boshqa tillarga tarqalmoqda. Ingliz tilidagi neologizmlar, asosan, ommaviy axborot vositalari, internet va xalqaro aloqalar orqali boshqa tillarga yetib borib, nafaqat lug'at tarkibiga, balki madaniyatga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon ayniqsa ingliz tilidagi axborot vositalari va kommunikatsiya vositalarining ta'siri kuchli bo'lgan tillarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'zbek tilining asosiy lug'at boyligini qadimgi turkiy va sof o'zbekcha so'zlar tashkil etsa-da, turli davrlarda unga fors-tojik, arab, nemis va boshqa 20 dan ortiq tillardan so'zlar kirib kelgan. 1990-yillargacha o'zbek leksikasida rus tilidan o'zlashgan so'zlarning salmog'i yuqori edi. Masalan, samovar, karavot, qulupnay, mashina, tuzum kabi so'zlar rus tilidan olingan neologizmlar hisoblanardi. Ammo XXI asrga kelib, ingliz tili tilimizda ustuvor mavqega ega bo'lib, o'z neologizmlarini barqaror ravishda singdirmoqda.

Ingliz tilidan kirib kelayotgan yangi so'zlarning o'sib borayotgan ta'siri O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy aloqalari va turizm sohasidagi integratsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'rghanishni rivojlantirishga qaratilgan Prezident farmonlari bu jarayonni yanada jadallashtirmoqda.¹

Neologizm so'zi yunoncha "neos" (yangi) va "logos" (so'z, ma'no) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, u yangi so'z yoki iborani anglatadi. Neologizmlar, yangi texnologiyalar, ilmiy kashfiyotlar, madaniy o'zgarishlar va boshqa omillar ta'sirida tilga kirib keladi. Neologizmlar tilning rivojlanishida, uning jamiyatdagi o'zgarishlarni aks ettirishida muhim rol o'ynaydi. Ularning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari esa tilni maqsadli auditoriyaga moslashtirish va axborotni samarali uzatishdagi o'rmini aniqlashga yordam beradi.

Neologizmlar ko'pincha semantik jihatdan yangi ma'no keltiradi. Ingliz va

¹ Alimov, Sh. (2009). Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o‘zbek tillaridagi yangi so‘zlar ko‘pincha ilgari mavjud bo‘lgan so‘zlarning o‘zgarishi yoki yangi so‘zlar bilan almashtirilishidan yuzaga keladi. Masalan, ingliz tilidagi “selfie” so‘zi hozirda keng tarqalgan bo‘lib, avval “self-portrait” (o‘z portreti) degan ma’noni bildirgan bo‘lsa, hozirda asosan o‘zini telefon orqali suratga olishni anglatadi. O‘zbek tilida ham “internet” yoki “smartfon” kabi so‘zlar ingliz tilidan olingan va zamonaviy kommunikatsiyada keng qo‘llaniladi.

Neologizmlar faqat semantik jihatdan emas, balki pragmatik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Ularning tilda qo‘llanishi kommunikativ vazifani bajarishda muhim rol o‘ynaydi. Ingliz tilida “hashtag” kabi so‘zlar ijtimoiy tarmoqlarda, reklama va marketingda samarali ishlatiladi. Ushbu neologizmni qo‘llash maqsadi, ma’lum bir mavzu yoki muhokamani ajratishdir. O‘zbek tilida ham “online” so‘zi, ayniqsa, yoshlar orasida keng tarqalgan bo‘lib, ular internetdagi faoliyatni bildiruvchi kontekstda ishlatishadi.

Neologizmlar ko‘pincha madaniy o‘zgarishlarga, ijtimoiy hayotdagi yangiliklarga mos ravishda paydo bo‘ladi. Ingliz tilida texnologiyalarga oid so‘zlar, masalan, “cloud computing” (bulutli hisoblash), “blockchain” (blokcheyn), iqtisodiyot va biznesdagi yangiliklar bilan bog‘liq. O‘zbek tilida esa madaniyat va milliy urf-odatlar, yangi ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan neologizmlar paydo bo‘lmoqda.

Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi farq, ular qanday yangi so‘zlarni qabul qilishda va qanday jarayonlar orqali ushbu so‘zlar kommunikativ amaliyotga kirib kelishini anglatadi. Ingliz tili global miqqosda eng keng qo‘llaniladigan tillardan biri bo‘lib, ko‘plab so‘zlar boshqa tillardan olingan va ingliz tilida yangi ma’nolarni ifodalashda ishlatiladi. O‘zbek tili esa milliy xususiyatlarni saqlagan holda, zamonaviy texnologiyalar va global kommunikatsiyaga bog‘liq bo‘lib, ingliz tilidagi so‘zlarni adaptatsiya qilish orqali rivojlanmoqda.

Neologizmlar ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarni aks ettirishda va tilni o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashtirishda muhim ro‘l o‘ynaydi. O‘zbek tilida ham inglizcha so‘zlarning kirib kelishi tilda yangi so‘zlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Masalan, “startap”, “menedjer”, “freelancer” kabi so‘zlar nafaqat ingliz

tilidan, balki boshqa tillardan ham olingan.

Ingliz neologizmlarining boshqa tillarda keng qo'llanilishi tilshunoslik nuqtai nazaridan so‘z o‘zlashtirish jarayonini va ingliz tilining turli sohalardagi global mavqeyini namoyon etadi. Masalan, hozirgi kunda o‘zbek tilida “Internet”, “OK”, “Hotel”, “Fast food” kabi atamalar va ularning turlari – “Hotdog”, “Gamburger”, “pizza” kabi so‘zlar keng tarqalgan bo‘lib, ma’nosи hammaga tushunarli. Shu kabi, boshqa tillarda ham “Wi-fi”, “CEO”, “popcorn”, “email”, “parking” kabi so‘zlar kundalik nutqga singib ketgan. Bunday atamalar tilshunoslikda “internatsional so‘zlar” deb yuritilib, ular turli tillarda bir xil shaklda ishlatiladi va umumiy insoniy tushunchalarni ifodalaydi

Xulosa qilib aytganda, Ingliz va o‘zbek tillaridagi neologizmlarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari, tilning ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga qanday javob berishini, yangi tushunchalarni qanday ifodalashini, va yangi axborot texnologiyalarining ta’sirini aniqlashga yordam beradi. Neologizmlar, tilning rivojlanishida va kommunikativ jarayonlarda yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Shu bilan birga, tilning semantik va pragmatik xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, so‘zlarning maqsadli auditoriya bilan muloqotda qanday ishlatilishini aniqlaydi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi neologizmlar tilshunoslik va kommunikatsiya fanlarida yangi yo‘nalishlarni ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
2. Yule, G. (2017). The Study of Language (6th ed.). Cambridge University Press.
3. Alimov, Sh. (2009). Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
4. Karimov, M. (2017). Zamonaviy o‘zbek tilining leksikologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.